

## ANBAR OTIN - MA'RAFATPARVAR SHOIRA

*Rajabova Hulkar A'zamovna*  
*O'zbekiston jurnalistika va ommaviy*  
*kommunikatsiyalar universiteti talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbek shoirasi Anbar Otinning hayoti va ijodi haqida, yosh xotin-qizlar ta'lim-tarbiyasiga qo'shgan hissasi haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Zulm, mashaqqat, ma'rifat, istiqbol, iste'dod.

18-19-asrlarda O'rta Osiyoda noyob iste'dod sohibalari yashab o'tishgan. O'sha davrda murakkab vaziyat, tahlikali zamon bo'lishiga qaramay, ular o'z hayotlarini xavf-xatarga qo'yib bo'lsada ijod qilishgan, xotin qizlarni savodini oshirish, ularga ta'lim-tarbiya berib ma'rifatli qilishda jonbozlik ko'rsatishgan. Maktablar ochib adabiyot va boshqa fanlarni o'zlashtirishga, ijod sirlarida voqif bo'lishga ruhlantirgan. Shunday shoiralarga Nodira, Uvaysiy, Dilshod Barno, Anbar Otinlarni misol qilib olishimiz mumkin.

Anbar Otin Farmonqul qizi (1870 -1906) Qo'qonda kambag'al kosib oilasida tavallud topgan. Otasi Farmonqul asli Marg'ilonlik bo'lib shoira Uvaysiyning jiyani bo'lgan. Onasi Ashurbibi Qo'qonlik bir kosibning qizi bo'lgan. Anbar yoshligidan ilm olishga qiziqishi borligi tufayli 7 yoshidan o'z mahallasidagi Dilshod Otinning maktabida ta'lim oladi.

Navoiy, Uvaysiy ijodlaridan o'rganib ularni o'ziga ustoz deb biladi. Shoira 1905-yilda devon tuzib unga 41 g'azal, 4 muxammas, bir qit'a, bir mustahzod va o'zining tarjimai holini she'riy tarzda yozib kiritgan. Shoira lirik shoira bo'lish barobarida o'z davrining ijtimoiy-siyosiy, sotsial muammolarini kotarib chiqdi. Uning bu isyonkor qarashlari esa zulmkorlar tomonidan jazolanishiga ham dabab bo'ladi. Shu bilan birgalikda sof sevgini tarannum etib, ayol qalbi his-tuyg'ularini she'rlarida nozik chizgilar bilan aks ettiradi. Hayoti qanchalik mashaqqatli kechsada ijoddan to'xtamay, ertangi kunning istiqbolli tonglarini sog'inib, kelajakka umid bilan qaraydi. Anbar Otin faqat ijod bilan cheklanib qolmay mahallasidagi yosh xotin- qizlarga ta'lim - tarbiya beradi, shu sababli Otin nomiga ega bo'ladi. Ozbek va Tojik tillarida ijod qilib, ko'proq ammasi Uvaysiyga ergashadi. Zamondoshlari Muqimiy, Furqat, Zavqiylar ijodi bilan qiziqib, ular bilar tanishadi, ijodiy bahslar olib boradi. Shoiraning o'zi tuzgan devonidan tashqari 70 - yillarning boshida 40 ga yaqin she'rdan iborat qo'lyozma devoni " Qarolar Faldafasi" risolasi, 160 misralik " yakka bayt" lari topiladi.

Shoiraning uzoq yillar betob bo'lib yotishiga qaramasdan tojikcha devon tuzish niyati bo'lgan. Afsuski uning bu devonning tuzib qoldirganligi haqida ma'lumotlar yo'q. Anbar Otinning she'riyatining aksariyati ijtimoiy mavzuda bo'lib, zamona

adolatsizligidan, mehnatkash xalqning ayanchli ahvolidan soʻzlaydi, maʼrifatli boʻlishga chaqiradi. " Qarolar falsafasi" asarida ayollarning ogʻir qismati haqida hikoya qiladi.

Oʻzining betobligi, kelajak, istiqbol umidlarini sheʼrlariga soladi. Farzandlari hayoti va istiqboli uni oʻylantiradi. Ularni bir kun kelib albatta baxtli zamonda yashashlariga ishonadi. " Tarnimai hol" sheʼrida ota-onasi, ukalari va oʻzining ayanchli hayoti haqida soʻzlaydi. Toʻrt farzandi va vafot etgan qizi Ominaxonning yodlab iztirob, dardlarin shu sheʼrida aks ettiradi. " Alifbo" sheʼrida esa har bir harfga bagʻishlab toʻrtliklar bitadi.

Masalan;

Alif

Odam ersang maʼni bil dona-dona,

Vatan erur sanga ikkinchi ona.

Soʻzlamasdin oldin soʻzingni sina,

Har bir soʻzdur umring ichinda sina.

Gʻazallarida esa jaholat, zulm, ijtimoiy tengsizlikni qoralab, xalqni maʼrifatli boʻlishga chaqiradi. Bir kun istiqbolli tonglar otishiga, maʼrifat chechaklari boʻy koʻrsatishiga umid qiladi.

Xulosa oʻrnida shuni taʼkidlash joizki maʼrifat, ilm izlagan koʻngilga hech qanday zulm, mashaqqat gʻov, toʻsiq boʻlolmaydi. Anbar Otin Oʻzbek xalqining maʼrifatli shoirasi, shu bilan birgalikda yosh xotin- qizlarning savodini chiqarishda ulkan hissa qoʻsha olgan ziyoli ayollardan biridir.

### Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Internet maʼlumotlari
2. Arxiv.uz
3. www.xs.uz